

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
Rektor D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

**O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA ETNIK
TARIXI:TADQIQOT VA TAHLIL MASALALARI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	70220303- Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix)

Qo‘qon-2025

Fan/modul kodi O'ETET2205		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov fanlar		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi:tadqiqot va tahlil masalalari		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – Magistrantlarni o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixining asosiy bosqichlari, uning manbashunosligi va tarixshunosligiga oid keng ilmiy materiallar bilan tanishtirish, shunga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. Fanning vazifasi – Magistrantlarga o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi fani uslublari bo‘yicha etnogenez masalalarini o‘rgatish, Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi tarixini o‘zbek xalqi etnogenezi tarixi misolida qiyosiy tahlil qilish. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi tarixshunosligi. Kursning mazmun va mohiyati, uning tarix fanida tutgan o‘rni. Uning ob’ektlari: tarix va arxeologiya, etnografiya va antropologiya, numizmatika va lingvistika, toponimika va yozma manbalar. Etnogenez va etnik tarix masalasini tarix fanida qo‘yilishi va uni sovet tarix fanida o‘rganishlikning zaruriyati. Etnogenez va etnik tarixni o‘rganishda 1942 yilda Toshkentda o‘tkazilgan O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixiga bag‘ishlangan ilmiy sessiyaning roli va uning materiallari. Masala echimiga kompleks yondashuvning boshlanishi. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi bo‘yicha Toshkent ilmiy anjumanidan keyingi yillarda olib borilgan kompleks xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari. 2-mavzu: O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasida fandagi mavjud ilmiy konsepsiyalar va nazariyalar tahlili. O‘rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalasini tushinishda XX asr boshlarida “turk absolyutizmi” (panturkistik), “paneranistik” va “panislomizm” qarashlarning kelib chiqishi va ularning tub mohiyati, tahlili. XX asrning 40-yillarida ularga zidli o‘laroq “milliy avtoxtonizm” nazariyasini ishlab chiqilishi va uning ilmiy afzalliklari. A.D.Udalsov, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, L.V.				

Oshanin, A.N.Bernshtam va boshqalarning chiqishlari. “Milliy avtohtonizm” nazariyasining etnogenez va etnik tarix masalasida sovet tarixshunosligida hukmron konsepsiyaga aylanishi. O‘zbek etnosining ko‘p etnik qatlamlilik masalasi. Mahalliy tub joyli aholi va uning tili masalasi. Turk va turkiy etnonimlar. Migratsiya jarayonining etnogenezda tutgan o‘rni. O‘zbek etnogenezining boshlanishi va yakuniy nuqtasi. O‘zbek etnosining tili masalasida lingivistlarning qarashlari. O‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasida o‘zbek atamasiga urg‘u berishlikning noilmiy xarakteri. Yuriy Bregel, Rahim Masov, G. Petrova, S.P. Polyakov, I. Rashidov qarashlari.

3-mavzu: O‘rta Osiyo hududining qadimgi tub aholisi aks etgan yozma manbalar tavsifi.

O‘rta Osiyoning tub joyli aholisi haqida Avesto ma’lumotlari. G‘ova sug‘da, Baxti, Mauri, Xvarizam va boshqalar. Tur qabilalari. Ularning Avestoda ta’rifi. Ahamoniy podsholarining qoyatosh lavhalarida O‘rta Osiyo xalqlari. Behistun, Naqshi Rostam va Persopol bitiklari tavsifi. Ahamoniy yozuvlarida saklar. Skilak va uning Xindga sayohati. Xorazmiylar, haqida Skilak xabarlar. “Katta Xorazm” masalasi. O‘rta Osiyo xalqlari haqida yunon-rim mualliflari. Gekatey va Geradot. Geradotning “Tarix” asari. Ktesiy va uning “Persika” asari. Ksenofont va uning “Kiropediya” asari. Arrian, Kursiy Ruf hikoyalari. Strabon “Geografiya”si tavsifi. Bu asarlarda O‘rta Osiyo xalqlari haqida xabarlar. O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqida Xitoy manbalari. Si Ma Syan va uning “Tarixiy xotiralar” asari, Ban Gu va uning “Birinchi Xan dinastiyasining tarixi” asari. Yuechjilar va ularning kushonlar davlatiga asos solishi.

4-mavzu: O‘zbek etnosining antropologik tipi va u dastlab tarkib topgan zamon va makon masalasi tarixiy tadqiqotlarda.

O‘rta Osiyo qadimgi aholisining tipi tadqiqotlari. “O‘rta er dengizi tipi”. Antropologik atamasi-dolixotsefaliy. O‘rta Osiyoning shimoliy-sharqiy tomonlaridan bronza davridan e’tiboran kirib kelgan chorvador aholi tipi-“protoevropalilar tipi”-braxotsefaliy. Bu ikki tip qarishuvidan tashkil topgan yangi tip haqida, ya’ni hozirgi zamon o‘zbeklarining jismoniy qiyofasiga xos “O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi” haqidagi tadqiqotlar. Bu tip qachon va dastlab qaerlarda tashkil topdi? Bu jumboq fanda o‘zoq yillar o‘z echimini topa olmaganligi. Bu tipning ilmiy echimini o‘zoq yillar davomida juda boy paleoantropologik materiallar asosida antropolog T.Q.Xo‘jaev topganligi. Ushbu mavzu bayonida o‘zbeklarga xos “O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi”ning paydo bo‘lishi, uni dastlab qaerda, qachon tarkib topgani haqida arxeologik va antropologik ma’lumotlar berish ko‘zda tutiladi.

5- mavzu: Antik davrida O‘rta Osiyoda kechgan etnogenetik jarayonlar tahlili.

Iskandar Zulqarnaynning harbiy yurishlaridan keyin O‘rta Osiyoda tub sotsial-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarning yuz berishi. Shimolda Kang‘li davlati, qadimgi Farg‘onada Davon davlati, janubda Yunon-Baktriya davlati. Da-yuechjilarning janubga, xunnlarning katta guruhini g‘arbga tomon ko‘chishi munosabati bilan mintaqada turkiy elementlarning qalinlashishi. Sirdaryoning

kuyi havzasida “Jetiasar”, oʻrta havzasida “Qovunchi” arxeologik madaniyatlarini tashkil topishi. Shu munosabat bilan mahalliy aholining moddiy va maʼnoviy madaniyatida yuz bergan oʻzgarishlar tahlili.

6- mavzu: Ilk oʻrta asrlar davrida Oʻrta Osiyodagi etnogenetik jarayonlarga doir nazariy qarashlar.

Yangi etnik guruxlarning mahalliy aholi bilan oralashib ketishi natijasida Sirdaryoning oʻrta va kuyi havzasi rayonlarida turkiy tilning jonli xalq tiliga aylanib borishi. Qangʻ davlati hududiy doirasida “Oʻrta Osiyo ikki daryo oraliqʻi tipi”ning shakllanishi. Bu etno-madaniy jarayonlarning antik davr etnik holatiga taʼsiri. Antik davrning soʻngi damlarida turkiy etnik guruxlarning Sugʻd ulkasiga, uning vahoga chegaradosh dashtlariga kirib borishi. “Qizil-qir” madaniyati. Turkiy etnosning Qadimgi Fargʻona hududlariga yoyilishi. Bu tarixiy jarayonlarga doir nazariy qarashlar.

7-mavzu: Oʻzbek elatining shakllanishida muhim rol oʻynagan komponentlar tahlili.

Elat feodalizm jamiyatining ijtimoiy mahsuli. Akademik K.Shoniyozovga koʻra, oʻzbek elati dastlab tarkib topgan hududlar va Qoraxoniylarning Movarounnahrda kirib kelishi. Oʻzbek elati shakllanishiga doir tadqiqodchilar nazariy qarashlari.

8-mavzu: Oʻzbek elatining shakllanish bosqichlari va uning xalq sifatida uzil-kesil shakllanishiga doir konsepsiyalar.

Oʻzbek elatini shakllanishining oʻziga xos xususiyatlari, yaʼni ikki tilli etnoslar qorishuvi masalasi. Mahalliy tub sugʻdiy zabon aholi va mahalliy turgʻun turkiygoʻy aholi. Oʻzbek etnogenezining boshlangich nuqtasi va uning bosqichlariga doir fandahi nazariy qarashlar. Xalq tarixining uning nomidan qadimiyligi masalasi. Somoniylar davlati oʻrnida uchta turk davlatlarini tashkil topishi va siyosiy hokimiyatni turk sulolalari qoʻliga oʻtishi munosabati bilan mintaqada turkiy etnik qatlamning keskin qalinlashuvi. Oʻzbek elatining dastlab “turk” etnonimi bilan yuritilishi. Oʻzbek turklarining asosini qarliq-chigil turklari tashkil etishi. Gʻarbiy Turk Hoqonligining tashkil topishi va hoqonlik turklarining til va etno-madaniy taraqqiyot jihatidan boshqa turklardan farqi. Movarounnahrda yangi “Etnik hudud”ning tashkil topishi va unda yashovchi turgʻun aholi tarkibi.

9-mavzu: Dashti Qipchoq oʻzbeklarining Movarounnahrda kirib kelishi va etnomadaniy jarayonlardagi ishtiroki masalasi.

XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoq qabilalarining Oʻrta Osiyoga kirib kelishi va Shaybonixon xukmronligining oʻrnatilishi. Shayboniyxon oʻlimidan keyingi siyosiy vaziat va Buxoroda hokimiyat tepasiga Abdullaxon II ni kelishi. Uning qattiq qoʻllik siyosati. Ashtarxoniylarni xokimiyatga kelishi va oʻz aro feodal beboshliklari tufayli Oʻrta Osiyoni uch xonlikka boʻlinib ketishi. Siyosiy ahvolning aholi etnik tarkibiga taʼsiri. Oʻzbek atamasi va uning kelib chiqishi haqidagi qarashlar. Oʻzbek urugʻlarining tarkibi: qiyot, mangʻit (Dashti Qipchoq koʻchmanchi oʻzbek davlatining uyushtirishda mangʻitlar katta rol oʻynaganlar), bayli, qoʻngʻirot, tangut, doʻrman, qoʻshchi, nayman, tubay,

toymas, qtoy, barak, uyg'ur, qarluq, kenegas, uyshun, kurlovut, imchi, tuman, ming va boshqalar. Movarounnahrning tub aholisi, ularning xo'jaligi, kundalik turmush tarzi, madaniyati, tili va antropologik tipi. Shayboniy o'zbeklarining tili (turkiy tilning o'g'o'z va qipchoq laxjalari), mashg'uloti, turmush tarzi, madaniyat va antropologik qiyofasi.

10- mavzu: O'zbek xonliklari davrida siyosiy va etnomadaniy jarayonlar tahlili.

Ko'chmanchi o'zbeklarga qadar Movarounnahrda yashab kelayotgan turkiygo'y qavm va elatlar: (tili turkiyning qarluq va chigil laxjasi) qarluq, chigil, argun, tuxsi, qang'li, turk, musabozori, kaltatoy, uyg'ur, og'o'z, qipchoq, jaloyir, barlos, orlot, qavchin, qang'li, az, o'z, turkesh, nushibi, dulu, kulon, merki, yagmolarning katta qismi mahalliy aholi bilan qarishib o'troq hayot kechirishga o'tib, o'rug'-aymoqchilik an'alarini unitilishi. Ularning badavlat qismini avvalgidek sahroyilik hayot tarzini davom ettirib, urug'-aymoqchilik an'alarini saqlab kelishi. Ushbu etnomadaniy jarayonlarga doir nazariyalar.

11-mavzu: O'rta Osiyo iqtisodiy hayotiga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi va milliy burjuaziya hamda jadidchilikning paydo bo'lishiga doir tadqiqotlar.

Uning etno-adabiy jabhasi, etno-madaniy qirralari, respublika davlatining iqtisodiy-xo'jalik yutuqlari, siyosiy davlat mavqi, ommaviy-tashviqot davlat mashinasining mafkuraviy yo'nalishi va boshqalar. Jadidchilikning paydo bo'lishi va taraqqiyotiga doir bugungi nazariy qarashlar tadqiqotlar.

12-mavzu: O'zbekiston Respublikasining tashkil topish arafasida etnik holat va milliy hududiy chegaralanishning maqsad va mohiyati.

O'zbek diasporasi ongiga Sovet davlati tarkibidagi konstitusiyaviy mustaqil, amalda esa, unga etish orzularini so'ndirish ruhini singdirilishi. Milliy davlat, ona-Vatan tushunchasiga sovet ruhini singdirish.

13-mavzu: O'zbek millatining shakllanish jarayoni va o'zbek atamasining umummillat etnonimiga aylanishiga doir nazariyotchilar fikr-mulohazalari.

O'zbek so'ziga millat nomi sifatida etnik ma'no va mazmun kasb ettirish yo'lidagi umum davlat siyosati. Uning etno-adabiy jabhasi, etno-madaniy qirralari, respublika davlatining iqtisodiy-xo'jalik yutuqlari, siyosiy davlat mavqi, ommaviy-tashviqot davlat mashinasining mafkuraviy yo'nalishi va boshqalar. Tarixan asrlar tajribasidan o'tgan, xalqning ibratli fazilatlarini o'zida mujassamlashtirib, uning milliy an'anasiga aylangan udumlarini yo'q qilinishi. Dini va milliy-ahloqiy normalaridan o'zoqlashtirish. Xullas, sovetlar davrida millatni tarixiylik va milliylik asosida emas, balki lenincha «milliy» siyosat ruhida shakllantirishning ustuvorligi. Shunga qaramay, o'zbek millatining tarkib topish yo'lidagi qator ijtimoiy, iqtisodiy, etno-madaniy va siyosiy omillarning birin-ketin sodir bo'lishi. Siyosiy sohada Sovet davlati tarkibida O'zbekiston sovet sotsialistik respublikasining tashkil topishi, uning qat'iy hududiy chegarasining belgilanishi, konstitusiyaviy davlatning millat nomi bilan yuritilishi; ijtimoiy sohada O'zbekiston aholisining professional taifalarga

bo‘linishi va ularning ilg‘or otryadlarini o‘zbek millati milliy iftixoriga aylanishi;

14-mavzu: O‘zbek milliy mentaliteti va uning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiqi.

Mentalitet tushunchasi “jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’noviy salohiyati, insoniy qadr-qimmat, ularning hayot qonunlarini taxlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruxiy qiyofasi va kuvvati” ekanligi. Milliy mentalitetni o‘ziga xos tarixiy, etno-madaniy va tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllanishi. Milliy o‘ziga xoslikni o‘zoq tarixiy jarayonlarga munosabatda, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, o‘zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida shakllanishi. Xalqimizning ruhiy-psixologik qarashlari, ibratli an‘analari, urf-odatlar va marosimlarini shakllanishi. Milliy mentalitetni shakllanishida millatlarning aqliy intellektual imqoniyatlari va ruhiy-psixologik kayfiyatlarini aks etishi, o‘ziga xos xarakterning tarixiy tajribalar asosida shakllanishi. O‘zbek xalqi mentalitetining 4 ta yirik diniy - mafkuraviy bosqichni bosib o‘tganligi va ularning millat fe‘l-atvorida o‘chmas iz qoldirganligiga doir tadqiqotlar.

15-mavzu: Mustaqil O‘zbekiston davlati-o‘zbek millatining uzil-kesil shakllanishida bosh omil ekanligi masalasi.

Mavzuni yoritishga qaratilgan talablar: Ushbu mavzu yuzasidan maxsus ma’ruza bugungi kun talablaridan kelib chiqib, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish rejalashtirilgan. Chunki mustaqillik davri tarixi, bu davrda kechgan Tarixiy va etnomadaniy jarayonlar talabalar ko‘z o‘ngida sodir bo‘lmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi tub o‘zgarishlar esa bevosita ularning ota-onalari, yaqinlari ishtirokida yuz berdi. Ular millat taqdiri, millat orzu-istaklari, xalq ezgu niyatlari bilan uyg‘unlashib ketgan. Jamiyatda bo‘layotgan har bir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar millatning usil-kesil shakllanishi uchun xizmat etmoqda. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari dadil bormoqdamiz. Mustaqil O‘zbekiston davlati esa uning kafolati sifatida barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tub o‘zgarishlarga bosh-qosh bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlarni yoshlarimiz, birinchi navbatda talabalar qanday tahlil etmoqdalar, biz murabbiy ustozlarni qiziqtiradi.

III. Seminar mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarida magistrantlarning “O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi: tadqiqot va tahlil masalalari” fani bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikma va malakalarga yo‘naltirilishiga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixining nazariy va ilmiy-metodologik asoslari.
2. O‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasida fanda mavjud ilmiy konsepsiyalar va qarashlar.

3. O'rta Osiyo qadimgi dunyosining mintaqaviy rivojlanishi va madaniy-xo'jalik markazlari tahlili.
 4. O'rta Osiyo hududining qadimgi tub aholisi tarixi aks etgan yozma manbalar tahlili.
 5. Turkiygo'y qabilalarning ilk vatani va oriylar muammosi masalasiga doir fandagi nazariyalar.
 6. O'zbek etnosining antropologik tipi va u dastlab tarkib topgan zamon va makon masalasi tadqiqi.
 7. Antik davrida O'rta Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnogenetik jarayonlar tahlili.
 8. Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyoda etnogenetik jarayonlarga doir tadqiqotlar tavsifi.
 9. O'zbek elatining shakllanish bosqichlari va uning xalq sifatida uzil-kesil shakllanishiga doir fandagi qarashlar.
 10. XIII-XV asrlarda etnik jarayonlar va o'zbek adabiy tilining shakllanishi bo'yisha tadqiqotlar.
 11. Dashti Qipchoq o'zbeklarining Movarounnahrda kirib kelishi va o'zbek xonliklari davrida siyosiy va etnomadaniy jarayonlar tahlili.
 12. O'rta Osiyo iqtisodiy hayotiga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi va milliy burjuaziya hamda jadidchilikning paydo bo'lishiga doir tadqiqotlar.
 13. O'zbekiston Respublikasining tashkil topish arafasida etnik holat va milliy hududiy chegaralanishning maqsad va mohiyati tahlili.
 14. O'zbek millatining shakllanish jarayoni va o'zbek atamasining umummillat etnonimiga aylanishi. O'zbek milliy mentaliteti va uning o'ziga xos xususiyatlari masalasi tadqiqi.
 15. Mustaqil O'zbekiston davlati-o'zbek millatining uzil-kesil shakllanishida bosh omil ekanligi masalasi.
- Seminar mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

1. Abul G'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida o'zbek xalqi etnik tarixining talqini.
2. Qipchoqlar va ularning etnik tarixi bo'yicha tadqiqotlar.
3. O'zbek atamasi va uning kelib chiqish tarixiga doir nazariy qarashlar.
4. "Turk" etnonimining kelib chiqishi va ilk o'rta asrlarda turkiy qabila va elatlar joylashuviga oid konsepsiyalar.
5. Choch va Iloq antik va ilk o'rta asrlarda: etnogenetik jarayonlar tahlili.
6. Zaxiriddin Muhammad Bobur va Alisher Navoiy asarlarida "turk" va "sart" atamaları talqin va tahlili.
7. "Sart" atamasi etnik birlik yoki ijtimoiy taifa: fandagi mavjud mulohazalar va ularning taxlili.
8. O'rta Osiyo qadimgi xalqlari haqida Xitoy manbalari va ularni tahlili.

	9. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda kechgan etnik jarayonlar tadqiqi. 10. O'zbek xalqining etnik tarkibi va etnografik qiyofasiga doir ilmiy fikr-mulohazalar. 11. O'zbek etnosining antropologik tipi va u tarkib topgan dastlabki makon va zamon masalasini tahlili. 12. O'zbek etnosining IX-XII asrlarda yuz bergan tarixiy va etnogenetik jarayonlari tahlili. 13. Amir Temur va Temuriylar davrida kechgan etnik jarayonlar aks etgan manbalar. 14. Ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrda kirib kelishi va ularning o'zbek etnosiga ta'siri masalasiga oid qarashlar. 15. Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi va uning o'zbek millatini jahon miqyosiga chiqishida tutgan o'rni va roli masalasi tahlili.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant: • O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixining asosiy bosqichlari, manbashunosligi, tarixshunosligini, fanning nazariy va ilmiy-metodologik asoslarini haqida tasavvurga ega bo'lishi; • O'zbek atamasining umummillat etnonimiga aylanishi, o'zbek millatini tashkil topishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy omillarning o'rni va roli, o'zbek milliy mentalitetining o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq tushunchalarni bilishi va ulardan foydalana olishi; • O'zbek xalqining kelib chiqishi masalasida fanda mavjud ilmiy konsepsiyalar va qarashlarni tadqiq va tahlil qilish, o'zbek millatining shakllanishi masalalarini o'rganishda tarixiy izchillik, xolisona, ob'ektivlik tamoyillari asosida muammoning ilmiy yondashish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol metodlar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual ishlar; • jamoa bo'lib ishlash.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007.

